ONA TILINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Samarqand shahar 1-son texnikumi Ingliz tili fani o'qituvchisi

Erkaboyeva Muxlisa Baxtiyor Qizi

erkaboyevamuxlisa2@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada o'zbek tili va uning ahamiyatlari hamda ona tilining dunyo tillari oilasida tutgan o'rni borasida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Til muloqot vazifasi hisoblanadi .Barchamizga ma'lumki ,g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy bobomizga tegishli "Ko'ngil qulfi maxraning qulfi til va gulfin kalitin so'z bil" .Insonning qalb xazinasi bu tildir, qalb xazinasining kaliti esa so'zdir. O'zbek tili so'zlari juda ma'noli ,bitta ma'noga ega bo'lgan bir nechta so'zlarni ko'rishimiz mumkin.

Misol uchun, bitta ko'z so'zining bir qancha ma'nolari mavjud.Shunisi ma'lumki , bitta tushunchaga ega so'z , bir nechta so'zlar orqali ifodalansa , bir biriga ma'nodosh so'zlar qanchalik ko'p bo'lsa ,ayni shu til eng boy til hisoblanadi.Juda ko'plab adiblarimiz til haqida bir qancha hikmatli so'zlarni keltirib o'tganlar va tilni turlichalar orqali ta'riflaganlar. Bunga misol qilib, "Til-millat ko'zgusi", "Til-ma'naviyat ko'zgusi", "Til-millatning bebaho boyligi" va shu kabilardir.O'zbekistonda 1989-yil 21-oktyabrda xalqimiz asrlar-yillar davomida orzu qilib, intiqib kutgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo'yilgan boshlang'ich dadil qadamimiz edi. Aynan o'sha tarixiy hujjatga asoslanib o'zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo'ldi. Istiqlol yillarida ona tilimiz keng ma'noda davlat tiliga aylanib, yurtimizni erkin va ozod, farovon hayot kechirishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos qudrat sifatida maydonga chiqdi. Bugungi kunda O'zbekistonimizning "Milliy tiklanishdan –milliy yuksalish sari"

nomli boshtamoyil doirasida taraqqiyotning yangi, yanada katta bosqichiga yuzlanmoqda. Davlatimizda amalga oshirilayotgan keng ma'noli islohotlar mobaynida davlat tilimizning hayotiy faoliyatimizdagi o'rni va nufuzi tobora ortib boryapti. O'zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardafaol qo'llanib, xalqlararo minbarlarda baralla bosh ko'tarib yangramoqda. Chet mamlakatlarda tilimizga e'tibor va uni chuqur o'rganishga yosh avlodlarning qiziqishi kuchaymoqda. Hozirgi globallashuv davrida har bir millat, har qaysi tinch, mustaqil davlat o'zining milliy manfaatlarini ta'minlash, shu borada avvalo o'zining madaniyatini, oldindan qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylasb uni rivojlantirish masalasiga ustuvor yo'nalish qaratishi tabiiydir. Mamlakatimiz prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tilisifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni xalq tarixida tarixiy voqea bo'ldi desak, adashmaymiz. Chunki ushbu farmon asosida ko'p yillar yig'ilib qolgan muammolar yechimini topyapti, har yilning oktabr oyida til mutaxassislari tomonidan jon kuydirib aytib o'tilgan, so'ngra qog'ozlarda qolib ketgan takliflar, tavsiyalarning davlat hokimyati doirasida e'tiborga olinishi o'chib borayotgan umid nurlari yana yoritdi.

Rahbarimiz tomonidan o'zbek tilining davlat tili o'rnidagi mavqeyini tobora oshirish borasida qator chora-tadbirlarning qo'yilishi tilimizga bo'lgan hurmatning yanadayuksak namunasidir.Farmonga binoan, 2020–2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi ,shuningdek, asosiy yo'nalishlari tasdiqlandi.Tilimizga davlat miqyosida farmon asosida juda kattae'tibor qaratilayotgan ekan, uning jamiyatdagi o'rni, obro'sini oshirish, huquqiy maqomini belgilash, juda katta ma'nodagi xalqimizning davloat tili darajasiga olib chiqish uchun qanday chora -tadbirlar ko'rish kerak? Bu degani, davlat tili muhofazasi qanday bo'lishi kerak, degan manodagi masala ko'pchilikni o'ylantirishi, tabiiy hol. Buning uchun , birinchi o'rinda,

tilimizni har tarafdan mukammal ishlangan qonuniy tarafdan himoyalab qo‘yishimiz kerak bo‘ladi.

Shuni aytish kerakki, o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi millatimizning milliy mustaqillikka erishish yo‘lidagi juda katta qadamlaridan biri hisoblanadi. Ozodlik yillarida Xalqimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o‘zgarishlar yuz berdi. O‘zbek tilining xalqlararo miqyosda obro‘si ortib bordi. “Davlat tili haqida”gi qonun ona tilimizning bor husni va jozibasini to‘la namoyon etish bilan bir qatorda, uni ilmiy asoslar bilan rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug‘atlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari chop etildi.Milliy adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so‘z va so‘z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oidatamalarni, shevalarda qo‘llaniladigan so‘zlarni o‘z ichiga olgan besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” shu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridir.

Til –millatning ma'naviy boyligidir. Til nafaqat muammola vositasi hisoblanadi hamda millatimizning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Har xil millatlarning tillariga xurmat-ehtirom esa o‘z navbatida o‘zaro hamjihatlikda ishlashni, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Tillarni saqlanib qolishi uchun bu tillarni qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Aynan til tufayli insonlar u yoki bu millatga mansubligidan g’ururlanib hayot kechirishadi. Butiun tillarni tan olish va xurmat qilish tinchlikning birdan bir ta’minotidir. Shu sababdan ham har qaysi millat o‘z tili saqlanib qolishi uchun jon kuydirishadi. XXI asr o‘rtalariga borib, Xitoy tili asosiy til bo‘lib olishi mumkin. Olimlarning fikricha, til yashashi uchun undan kamida bir millon kishi so‘zlashishi kerak . Ammo bunday tillar dunyoda atigi 250 tadir. O‘zbek tili ham ana shu 250 taning ichida ekani quvonarli, albatta.

Yakunida shuni aytadigan bo'lsam, tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni ezozlash bilan teng hisoblanadi. Har biri millatning yashash tarzi, urf-odatlari, madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi. Til –millat ko'zgusi, deb bejiz aytilmagan. Xalqimizning ko'p asrlik serob tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati o'zbek tili ta'sirida shakllangan. Ulug' davlat arbobimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar keltirib o'tgan, dunyoni lol qoldirgan. Bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlarida millatimiz delegatsiyalari tashrifi, kelajak avlodlarimiz yutuqlari, sportchilarimiz g'alabalari sharafiga o'zbek tilida madhiyamiz sharafli kuylanaymoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bu maqola shaxsan o'z fikrlarim asosida va adabiyotlarga tayangan holda tuzildi. 2026

2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.10.2019-y., 06/19/5850/3939-son

3. Abduraxmonov G, Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. T., 2008.

4. Turdieva K, Axmedova D. O'zbek tili. T., 2007